

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.K.Boyqo'zieva	
Milliy madaniy merosimizni o'rganishda talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy jarayonlari	230
N.V.Nosirov	
Bo'lajak texnologik ta'lif o'qituvchilarini metodik kompetentligini axborotlashgan ta'lif muhitida takomillashtirish	234
G.Z.Ganiyeva	
Ingliz tilidagi toponimlarni izohlashda leksikografik tamoyillar (buyuk britaniya va amerika joy nomlari lug'atlari misolida)	238
Z.K.Abidova	
Professional ta'lif muassasalarida o'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatinitashkil etishda loyiha metodidan foydalanish.....	244
R.I.Madaliyev	
Talaba-yoshlarda harbiy vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirish texnologiyasi	248
M.X.Baybaeva, I.A.Imomov	
Talabalarning xulq atvori dagi nizoli vaziyatlarni pedagogik tashxis etishning sinergetik-tuzilmasining talqini.....	252
I.A.Imomov	
Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lif jarayonida talabalarda yuzaga keladigan nizolarning pedagogik tahlili	256
L.M.Sokolova	
Farg'ona vodiysi hunarmandlari postindustrial dunyoda	261
S.O'.Boybo'riyeva	
Maktabgacha yoshdag'i bolalarda nutq odobini shakllantirish muammolari.....	268
Sh.X.Xankeldiyev, D.K.Karimov	
Yosh akrobatlarning xarakat-texnik tayyorgarligi metodologiyasining kumulyativ samaradorligini o'rganish	272

IQTISODIYOT

X.X.Bozarov	
Kichik biznes va xususiy tadbirdorlik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning xususiyatlari	277

FALSAFA

Z.A.Boboyeva	
San'atning badiiy adabiyot turi uzlusiz ma'naviy tarbiyaning muhim omili.....	283
I.A.Xo'jaxonov	
Huquqiy targ'ibot jarayonida ommaviy axborot vositalarining o'rni.....	288
U.M.Mamajonov	
Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni musiqiy qobiliyatini rivojlantirishning muhim shartlari.....	293
M.B.Yuldasheva	
Biolog talabalarni kasbga yo'naltirilgan yondashuv orqali til o'qitish bo'yicha taklif	298
B.M.Qandov	
Global ekologik muammolar: shaxs dunyoqarashi va milliy qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar	302
O.T.Berkinov	
Kibermakonda mavjud o'ziga xos tahdidlar	308
I.Ismoilov	
Jinoyatga jazo tayinlashga oid ayrim xorijiy davlatlar tajribasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari.....	311
A.A.Sayitxonov	
Milliy qadriyatlar- ma'naviy tarbiyaning mafkuraviy asosi.....	316
Z.O.Muminova	
Tafakkur tarzi va jamiyat mafkuraviy tizimining ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri	320
A.A.Isomiddinov	
Yoshlar intellektual salohiyatini oshirishning ijtimoiy-madaniy omillari	324

YOSHLAR INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISHNING IJTIMOIY-MADANIY OMILLARI

СОЦИОКУЛЬТУРНЫЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ МОЛОДЕЖИ

SOCIO-CULTURAL FACTORS OF INCREASING THE INTELLECTUAL COMPETENCE OF YOUTH

Isomiddinov Azizbek Abdumajidovich¹

Isomiddinov Azizbek Abdumajidovich

– Farg'ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi v.b.dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Jamiyat salohiyati tizimida yoshlar intellektual salohiyati muhim o'rinn tutadi. Bu esa taraqqiyot istiqboli nuqtai nazaridan yoshlar intellektual salohiyati kelajak tarixining mohiyatini belgilab beruvchi asosiy kuch sifatidagi ahamiyati ochib berilgan. Uning mavjudligi, taraqqiyotining asosida ma'lum ijtimoiy va madaniy omillar tahlil qilingan. Jamiyatda inson salohiyatining yuksaklik darajasi uning xususiyatlari va mazkur muammo bilan aloqador bir qator ijtimoiy hodisalarning amalga oshib borishi kabi omillar har qanday davlat, millat taraqqiyoti va mamlakat hayotining ijtimoiy yuksalishiga ta'sir etishi o'rGANIGAN.

Аннотация

Интеллектуальный потенциал молодежи занимает важное место в системе общественного потенциала. С позиции развития раскрывается значение интеллектуального потенциала молодежи как главной силы, определяющей сущность будущей истории. Определенные социальные и культурные факторы анализируются на основе его существования и развития. Изучено, что такие факторы, как высокий уровень человеческого потенциала в обществе, его особенности и реализация ряда социальных мероприятий, связанных с этой проблемой, влияют на развитие любого государства, нации и социальное развитие жизни страны.

Abstract

The intellectual potential of young people occupies an important place in the system of community potential. From the perspective of development, the importance of the intellectual potential of young people as the main force that determines the essence of future history is revealed. Certain social and cultural factors are analyzed on the basis of its existence and development. It has been studied that factors such as the high level of human potential in society, its characteristics and the realization of a number of social events related to this problem affect the development of any state, nation and the social development of the country's life.

Kalit so'zlar: Yoshlar, intellektual salohiyat, ijtimoiy-madaniy omillar, salohiyat, intellektual kapital, intellektual resurs, aqliy faoliyat, intellektual qobiliyat.

Ключевые слова: Молодежь, интеллектуальный потенциал, социокультурные факторы, потенциал, интеллектуальный капитал, интеллектуальный ресурс, умственная активность, интеллектуальные способности.

Key words: Youth, intellectual potential, socio-cultural factors, potential, intellectual capital, intellectual resource, mental activity, intellectual ability.

KIRISH

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi yoshlar kamoloti bilan bog'liq bo'lib, har qanday yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatning yoshlar ta'lim-tarbiysi va kelajagiga beriladigan e'tibori bilan chambarchas bog'liq. Davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri bu yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, ijtimoiy taraqqiyotning in'kosi bo'lgan ijtimoiy falsafiy dunyoqarashning yangi sifatiy bosqichga ko'tarish, yoshlar ta'lim-tarbiya tizimi va ularning modernizatsiyalashtirish imkoniyatlarini ta'lim falsafasi kontekstida tadqiq etish, milliy ta'lim tizimidagi islohotlar uzvyligi, ta'lim va tarbiyaning o'zaro uyg'unligini hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanishni taqozo etmoqda. Mazkur holat dunyo hamjamiyati tomonidan yoshlar masalasi va ularning intellektual salohiyatini oshirishga bo'lgan ehtiyojni ottirmoqda. Zero, yoshlar jamiyatni yetakchi kuchi, ularning intellektual salohiyati ijtimoiy-madaniy omillarni tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi.

FALSAFA

Yoshlar intellektual salohiyatini oshirishning ijtimoiy-madaniy omillari sifatida "salohiyat", "intellektual salohiyat" tushunchalari, intellektual salohiyatni o'rganish konsepsiyalari va yondashuvlari muhim hisoblanadi. Yoshlar intellektual salohiyatini oshirishning ijtimoiy-madaniy omillarining mazmun-mohiyati, ijtimoiy-madaniy omillarning ob'ektiv va sub'ektiv ahamiyati va ulardan foydalanishni takomillashtirish zaruratini ilmiy asoslash zarur. Shuningdek, intellektual kapital, intellektual resurs, aqliy faoliyat, intellektual qobiliyat kategoriyalari va ularning amal qilish chegaralari jamiyatda inson salohiyatining yuksaklik darajasi, inson salohiyati tizimining mohiyati va xususiyatlari mazkur muammo bilan aloqador bir qator ijtimoiy hodisalarining amalga oshib borishi kabi omillar har qanday davlat, millat taraqqiyoti va mamlakat hayotining ijtimoiy yuksalishiga ta'sir etadi. O'zini tizim sifatida namoyon etgan jamiyat dastlab, ijtimoiy taraqqiyotning quyi davrlarida inson salohiyati biologik ehtiyojlar sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, keyinchalik salohiyat shaklida jamiyat taraqqiy etib borgani sari uning yangi shakllarida paydo bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR

Jamiyat taraqqiyoti istiqboli nuqtai nazardan yoshlar intellektual salohiyati kelajak tarixining mohiyatini belgilab beruvchi asosiy kuch sifatida qaraladi. Uning mavjudligi, taraqqiyotining asosida ma'lum ijtimoiy va madaniy omillar turadi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha besh tashabbus va "Ayni paytda islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur" [1.23.]ligi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu jamiyat taraqqiyotida yoshlar intellektual salohiyatini oshirishning ijtimoiy-madaniy omillarini bajarilishining strategik maqsadiga asos bo'ladi. Shaxs va jamiyat intellektual salohiyatini rivojlantirishga bo'lgan zarurati ta'lim tizimi islohotlari va ular samaradorligi istiqbolimiz tayanchi bo'lgan yoshlarning yuksak intellektual salohiyat egasi bo'lib yetishishlari uchun yetarlicha imkoniyat yaratadi. Bizningcha, mazkur yondashuv cheklangan bo'lib, muammoning bir qismini hal etishi mumkin xalos.

Rossiyalik olima P.Lemanova inson salohiyatini ko'proq uning mustaqil inson sifatida o'zini namoyon qila olishi xususiyati bilan bog'laydi. Olimaning fikricha, inson o'z salohiyatini ma'lum sharoitlarda namoyon qila olish qobiliyati «Inson salohiyatini uning malakasini tashkil etuvchi elementlar: insonning o'z ishiga aqlini, energiyasini, pozitivligini, ishonchligini, sadoqatlilikini, hayot qiyinchiliklarida ishonchsizlikka qarshi ishonch bilan qarshi tura olishini, diskussiyalarda aniq pozitsiyaga ega bo'lishini, mehnat faoliyati amalga oshiriladigan siyosiya va iqtisodiy muhit sharoitlarini baholay olishini, insonning o'rganishga intilishini, qobiliyatini, tasavurini, insonning ijodiy xarakterini, turli hayotiy muhitlarda ishga vijdonan munosabatini, bilimlarning borligini anglay olishi va ularni tartibga sola olishini, maqsad va vazifalarni qo'ya olishi, nostonart vaziyatlarda to'g'ri yo'nalishni topishi, yuzaga kelgan muammolarni ratsional hal eta olishini, yangi axborotni topish va uni boshqalar bilan bo'lishish, guruhda ishlay bilish va maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni pozitiv yo'naltirishni, zamonaviy axloqiy qoidalarga bo'y sunish va boshqalar" [2.14.]. Ko'rinib turibdiki, P.V.Lemanova tomonidan inson salohiyati sifatida tavsiflangan hodisa insonning ko'proq intellektual salohiyatini ifoda etmoqda.

T.V. Kalinina esa inson salohiyatini kuch va undan olingan nisbat sifatida tavsiflab, uning asosida salohiyatni tashuvchi insonning fiziologik, biologik, ijtimoiy, psixik salohiyatlari turishini qayd etadi. "Salohiyatlilik barcha mavjud salohiyatning xususiyati hisoblanib, olamning salohiyatlilik mohiyati uning asosida realizatsiya bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, olimaning fikricha, insonni o'rab turgan butun olam, borliqqa salohiyatlilik xususiyati xos. Olamning mohiyatida salohiyatlilik mavjud. Salohiyatning iqtisodiy, ekologik, biologik va ma'naviy turlari mavjud" [3.16.]. Bu esa, shaxs salohiyati xususiyat va shakl nuqtai nazardan turlicha ekanligini anglatadi.

Yoshlar intellektual salohiyatini oshirish madaniy muassasalarda yoshlarni o'qitishning ko'plab muammolari bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi. Faylasuf Xose Arangurenning fikricha, intellektual salohiyat sohibi "Millat vijdoni, ozchilikning jamiyatdag'i eng ilg'or, mustaqil va progressiv ovozi" [4.638.]. Ya'ni, intellektual salohiyat sohibi millat va jamiyatning "javohiri" hisoblanadi. Bu o'z navbatida millat va jamiyatning "javohiri"ni tarbiyalash ehtiyojini keltirib chiqaradi. Soddaroq qilib aytganda, aql tizimining hozirgi holatini, inson hayotining ma'lum bir davrida (yoshlar) intellektual faoliyatning samaradorligini baholash uchun intellektual maqom tushunchasi qo'llaniladi. Aholining, xususan, "yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlarga qiziqishini kuchaytirish hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari va

texnoparklar faoliyatining yo'lga qo'yilishi [5.12.] jamiyat taraqqiyoti samaradorligini ta'minlovchi ijtimoiy-madaniy omillardir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqotda milliy ma'naviy immunitetni rivojlantirish va mustahkamlashda samarali foydalanish mumkin bo'lgan omillar va ularning amaliy ahamiyati ham xususan, ta'limning yangi modeli jamiyatda yuksak intellektual salohiyatli insonlarni tarbiyalaydi degan fikrlarga kelish mumkin. O'z-o'zidan ma'lum bo'ladiki, jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy omillarning sub'ektlari o'rtaсидаги barqарор munosabatlarni mavjudligi natijasida jamiyat rivojlanadi. Bu o'z navbatida millat va jamiyatning intellektual salohiyatli avlodini tarbiyalash ehtiyojini keltirib chiqaradi. Aholining, xususan, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlarga qiziqishini kuchaytirish hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari va texnoparklar faoliyatining yo'lga qo'yilishi jamiyat taraqqiyoti samaradorligini ta'minlovchi ijtimoiy-madaniy omillardir.

Yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishning innovatsion zaruriyati yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishda innovatsion tafakkurni shakllantirish zaruriyati, yoshlarning ijodiy faollik va kreativlik dinamikasi, ularning motivatsion jihatining jamiyat hayotidagi ahamiyatiga bog'liq. Falsafiy tafakkur, deterministik omillar, innovatsion izlanishlar, innovatsion tafakkurni harakatga keltiruvchi ichki va tashqi determinantlar, tafakkurning ijtimoiy kognitiv xususiyatlarini yanada asosli tahlil qilish kerar.

Yoshlar intellektual salohiyatini rivojlantirishda kreativlik dinamikasi va motivatsion jihatlari kreativlik kategoriyasining pedagogik, psixologik, falsafiy tahlili qiyosiy o'rganilgan, yoshlar intellektual salohiyatini rivojlantirishda ijodiy faollik va kreativlik dinamikasi tadqiqiga e'tibor qaratilib, ijodiy faoliyatning xususiyatlariga mavzu doirasida anqlik kiritilgan.

Yangi yosh xodimlarning intellektual salohiyatini shakllantirish va shakllantirish jarayoni (taftalogiya) bayon etilgan bo'lib, bizning nazarmizda, bu masala ham tor doirada qamrab olingenligini ko'rsatadi.

Umuman olganda jamiyatda ijodiy potensialga ega kuchlarini ro'yobga chiqarishda yosh avlodga puxta va mustahkam bilim berish, bu jarayonda ma'rifiy merosimizdan samarali foydalanish, ilm-fan sohasini ildam rivojlantirish, uning taraqqiyotida jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan ijodiy foydalanish, eng muhimi, yuksak ilmiy salohiyatga ega kadrlarni tayyorlash muammosi tadqiq etiligan. Ma'lumki, har qanday sohadagi yangilanish muayyan zaminlarga suyanadi. Ilm-fan sohasidagi islohotlarning mohiyat-mazmuni, yo'nalish va istiqbollari, uning asosiy omillariga urg'u berish bilan birga, har qanday jamiyatnatning yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishga innovatsion yondashuvi, ta'lim, intellektual boylikning rivojlanganligi, insonga bo'lgan munosabat, "inson kapitali" nazariyasi, ushbu nazariya doirasida boshqaruv va madaniyatga oid holatlar, ijtimoiy-madaniy kategoriyalar yoritiladi. Ishda inson kapitali odatda pul birligida o'lchanishi, lekin ijtimoiy-madaniy omillarda esa "kuch-bilim" sifatida ishlatalishini ilmiy asoslanishi zarur.

O'zbekistonda davlat va jamiyat boshqaruvini yoshlar intellektual salohiyatining oshirishga ta'siri yetuk kadrlarni tarbiyalashda yoshlar intellektual salohiyatining jihatlari, mamlakatda yoshlar intellektual salohiyatini oshirishning ahamiyatiga bog'liqdir. Intellektuallik va ta'lim-tarbiya tizimi o'zaro dialektik aloqadorlikda rivojlanadi. Bizning nazarmizda, aynan mana dialektik aloqadorlikning kuchi, sifat bosqichiga o'tishdagi shakl va mazmun mutanosibligi masalalari mavzu doirasidagi real muammolar, sabab va oqibatlar misolida aniq voqelik va real to'siqlar kesimida tadqiq etilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

XULOSA

Zero, boshqaruv kadrlarining professional salohiyati davlatning iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotining omili hisoblanadi. Ijtimoiy-madaniy hayotda davlat va jamiyat ishlarini boshqarish, strategik maqsadlar bilan uyg'unlashtirish kabi faoliyatlar kechadigan sotsiodinamik makon sifatida, undagi ob'ektlar ijtimoiy institutlar, jamiyat taraqqiyotining mexanizmlari rang-barang bo'lishi bilan ijtimoiy-siyosiy borliqni jonli, harakatini namoyish qiladi. Serharakatchanlik, mobillik bugungi ijtimoiy siyosiy borliqning, jamiyatlarning tub belgisidir. Bu talab ma'naviy-axloqiy omillarga ham, innovatsion izlanishlarga ham dinamizm baxsh etadi, ularni davr talablaridan, aholi ehtiyojlaridan orqada qolmaslikka undaydi.

O'zbekiston taraqqiyotining yangilanish bosqichida ijtimoiy-iqtisodiy va islohotlar ta'sirida davlat va jamiyat boshqaruvi kadrlarining professional salohiyatini uzlucksiz ravishda yuksaltirib borish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Chunki, davlatning kadrlar siyosati davlat

FALSAFA

va jamiyat boshqaruvi muammolarini hal qilinishining muhim omili hisoblanadi. Davlat boshqaruvi tizimida hamda mahalliy boshqaruv tizimida kadrlar siyosati tasodifiy (ko'r-ko'rona) tarzda amalga oshirilmaydi. Davlat o'zining yuqori malakali kadrlarni tayyorlash siyosatini olib borish orqali strategik maqsadlarini ilgari surishi, ustuvor vazifalarni belgilashi, ta'lim standartlarini ishlab chiqishi, kadrlarni qayta tayyorlashga davlat buyurtmasini belgilashi, boshqaruv kadrlarini tayyorlash me'yorlarini ishlab chiqishi lozim. Intellektual salohiyat va ijtimoiy-madaniy omillar orqali mamlakatni rivojlantirish borasida katta imkoniyatlar mayjud.

Birinchidan, ijtimoiy-madaniy omillar tasnifi va aynan, qaysi bir ijtimoiy-madaniy omillar yoshlar intellektual salohiyatini oshirishga qanday ta'sir ko'rasatadi, (vertikal, gorizonlar) misollar keltirish va ularning tahlilini asoslash maqsadga muvofiq edi.

Ikkinchidan, yoshlar intellektual salohiyatini oshirishning davr nuqtai-nazaridan emas balki, ontologik qarashlar asosida o'rganish ilmiy xulosalarini asoslashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, tafakkur rivoji intellektual bilim, emotsiyonal-irodaviy va amaliy jihatlarning o'zaro ta'sirida ro'y beradi. Shaxs va jamiyat intellektual salohiyatini ham bugungi jahon mehnat bozori talablaridan kelib chiqqan xolda shakllantirishimiz va rivojlantirishimiz lozim. Bu borada intellektual salohiyatni yuksaltiruvchi barcha omillarni ham mazkur talablarga muvofiq takomillashtirib borishimiz darkor bo'ladi. Bu bilan oilaga, ta'limga, tengdoshlarga, ommaviy axborot vositalariga berilayotgan e'tibordan maqsad umuman xalqimizni, balki yoshlarimizni ma'naviy kamolotiga berilgan e'tibor asosdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент: Ўзбекистон, 2022.
2. Леманова П.В., Социальная политика в управлении развитием человеческого капитала. Учебное пособие Москва. 2016.
3. Калинина Т.В.Функционально-типологический анализ человеческого потенциала. Дисс.на соискание степени кандидата философских наук.Специальность: 09.00.11-Социальная философия. Нижний Новгород, 2007.
4. Aranguren J.L. El buen talante // Obras Completas.-Madrid: Trotta, El buen talante.
5. Эгамбердиев А. Ўзбекистонда модернизация шароитида ёшларда инновацион онг шаклланишининг ижтимоий-фалсафий муаммолари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент. 2019.